

**ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARGA PEDAGOGIK  
PSIXOLOGIK YONDASHUV**

**Aziza Murtazoyevna Nematova**

**[azizanematova510@gmail.com](mailto:azizanematova510@gmail.com)**

Maxsus pedagogika (Surdopedagogika) yonalishi magistranti Nizomiy nomidagi  
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga pedagogik va psixologik yondashuv tamoyillari hamda amaliy metodlari yoritilgan. Eshitishida qobiliyatidagi cheklovlar bolaning umumiylariga, ijtimoiylashuviga va ta'limga olish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shunday holatlarda maxsus ta'limga texnologiyalaridan foydalanish, moslashtirilgan muhit yaratish hamda individual yondashuv orqali bu bolalarning bilim olishdagi qiyinchiliklarini yengillashtirish muhim hisoblanadi. Maqolada defektologiya va psixologiya fanlarining integratsiyasiga asoslangan holda samarali usullar tavsiya etilgan. Shu bilan birga, ota-onalar va o'qituvchilarning hamkorligi, bolalarda motivatsiya shakllantirish va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** *Eshitishida nuqson, pedagogik yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, inkluziv ta'limga, ijtimoiy moslashuv, individual yondashuv.*

**Kirish qismi:** Hozirgi kunda inkluziv ta'limga tizimini rivojlantirish jamiyatning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, eshitishida qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'limga olish jarayonini samarali tashkil etish, ularning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlash muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Eshitishida qobiliyatidagi cheklovlar bolaning muloqotga kirishish qobiliyatiga, psixologik holatiga va akademik yutuqlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagogik va psixologik yondashuvning nazariy asoslari hamda amaliy metodlari tahlil qilinadi. Jumladan, maxsus moslashtirilgan o'quv dasturlari, innovatsion texnologiyalar, pedagog

va defektologlarning roliga oid masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek, bolaning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, psixologik barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy muhitga moslashuvini oshirishga qaratilgan tavsiyalar beriladi. Maqola eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lif olish jarayonida duch keladigan asosiy qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchilar, defektologlar va ota-onalar uchun foydali bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

**Asosiy qism:** Eshitish qobiliyati cheklangan bolalar ta'lif jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning nutq rivojlanishi sekinlashgan bo'lishi, axborotni qabul qilish va tushunish jarayoni murakkabliklarga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu bolalar bilan ishlashda pedagoglarning maxsus yondashuvi, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda moslashtirilgan o'quv metodikalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lif berishda pedagoglar: Ta'lif materiallarini vizual shaklda, ya'ni rasm, diagramma, videolar orqali yetkazish muhim; Har bir bolaning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olib, individual ta'lif rejasini ishlab chiqish zarur; Bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirish va uni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik holatini qo'llab-quvvatlash ularning ta'lidiagi muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvini oshiradi. Ushbu yo'nalishda quyidagilar tavsiya etiladi:

**Stressni kamaytirish:** Bolalarda stress va tashvishlarni yengish uchun psixologik treninglar va o'yinlar tashkil qilish.

**Muloqotni rivojlantirish:** Tillarni o'rgatishda imo-ishora tili va boshqa kommunikativ metodlardan foydalanish.

**Oilaviy qo'llab-quvvatlash:** Ota-onalar va pedagoglar hamkorligini ta'minlash orqali bolaning rivojlanish jarayonini birgalikda boshqarish.

**Zamonaviy texnologiyalar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun o'quv jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.** Jumladan: Raqamli vositalar orqali imo-ishora tilini o'rgatish, video va audio materiallarni subtitrler bilan ta'minlash, maxsus texnik vositalar orqali bolalarning eshitishda qobiliyatini oshirish.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar jamiyatda o'zini erkin his qilishlari va tengdoshlar bilan samarali muloqot o'rnatishlari uchun quyidagi yondashuvlar qo'llanilishi kerak:

- Guruhda ishlashga undash.

- Inkluziv tadbirlar va treninglar tashkil etish.
- Bolalarda o'z qobiliyatlarini namoyish etish imkonini beruvchi faoliyatlarni rivojlantirish.

Tadqiqotlar va tahlillar natijasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagogik va psixologik yondashuvlarning ahamiyati katta ekanligi aniqlandi. Bu bolalar maxsus o'quv dasturlari, individual yondashuv va moslashtirilgan metodikalar yordamida ta'lif olishda ijobiy natijalarga erishishi mumkin. Ta'lif jarayonida vizual yordamlar, imo-ishora tili va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ularning axborotni qabul qilish jarayonini yengillashtiradi va o'qish motivatsiyasini oshiradi.

Shuningdek, psixologik qo'llab-quvvatlash bolalarning ruhiy holatini barqarorlashtirishda va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Pedagoglar, defektologlar va ota-onalar o'rtaсидаги samarali hamkorlik bolalar ta'limidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga ko'maklashadi.

Mazkur yondashuvlarning amaliyotda qo'llanilishi nafaqat eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lif olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ularni tengdoshlar qatorida o'z salohiyatini namoyon eta oladigan, jamiyatga to'laqonli integratsiyalashgan shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu natijalar jamiyatda inkluziv ta'lifni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamdir.

**Xulosa qismi:** Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagogik va psixologik yondashuvning to'g'ri tashkil etilishi ularning ta'lif jarayonidagi muvaffaqiyati va ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, maxsus moslashtirilgan ta'lif dasturlari, innovatsion texnologiyalar va individual rivojlanishga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish samarali natijalarga olib keladi.

Bolalarning ta'lif olishidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ular o'zlarini tushungan, qo'llab-quvvatlangan his qiladigan muhit yaratish zarur. Psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muloqotni rivojlantirish orqali bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va ularni jamiyatga integratsiya qilish mumkin. Shuningdek, ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning o'zaro hamkorligi bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maqola xulosasida shuni ta'kidlash mumkinki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda faqatgina maxsus metodikalarga tayanish emas, balki ularning shaxsiy

ehtiyojlarini tushunish va rivojlanish potentsialini olib berish muhimdir. Shu tariqa, bunday bolalar tengdoshlaridan ortda qolmasdan, o'z salohiyatini to'laqonli namoyish eta oladilar.

### **ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Qodirova F.U va boshqalar. Surdopedagogika /Darlik. – Chirchiq: "Osiyo tur", 2024.- 272 b.
2. Maxsus pedagogika (Darslik). —T.: «Fan va texnologiya», 2014,368 bet.
3. Rahmanova V.S. Maxsus pedagogika (mutaxassislikka kirish). T.: G'.G'ulom. 2005 y.
4. M.R.Abdullayeva and others. Social Psychological Features of the Process of Professional Stress in Pedagogical Activity // Journal Power System Technology ISSN: 1000- 3673, V 48, Issue 4. 2024/12. Pages 3325-3334
5. Ботирова, Диляфруз Бозоровна. "ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ." *Ta'linda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 31.2 (2024): 3-8.
6. Abdullaeva, Shoira, et al. "Enlightenment Awakening as a Guarantee of a Stable Society." *SPAST Abstracts* 2.02 (2023).
7. Ботирова Д. Б. Олий таълим муассасалари талабаларида ижтимоий фаолликни ривожлантиришнинг психологик хусусиятлари //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special Issue 1. – С. 21-25.